

**O‘ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon universiteti direktor,

i.f.f.d., dots. G. Zaxidov

” 17 yanvar 2024-yil

**10.00.06-QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA
TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUTAXASSISLIGI
FANLARIDAN TAYANCH DOKTORANTURAGA
KIRUVCHILAR UCHUN
DASTUR**

Qo‘qon – 2024

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası tomonidan ishlab chiqildi

Tuzuvchilar:

O.Mamaziyyev Qo'qon universiteti "Jahon tillari" kafedrası filologiya fanlari
nomzodi, dotsent
Sh.Jumanova Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası dotsenti (PhD)
Z.Qobilova Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası professori

Taqrizchilar:

D.Egamnazarova Andijon davlat chet tillari instituti "Ingliz tili va Adabiyoti"
kafedrası, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
M.Najmiddinov Qo'qon universiteti "Ta'lim fakulteti" dekani (PhD)

Ushbu dastur Qo'qon universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan
(2023 - yil "12" 11 dagi 2 - sonli bayonnomasi)

Kirish

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi 637- sonli Ta'lim to'g'risidagi Qonunining 1-bob 12- moddasida ta'kidlanishicha: "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy- pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi."

Darhaqiqat, 10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirilishunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga talabgorlar uchun kirish imtihoni o'tkazish tartibini va mezonlarini ishlab chiqishda ham Qonunda belgilanganidek " ... chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni ... " o'zining asosiy maqsadi qilib belgilaydigan talabgorlarni tanlash eng muhim vazifa bo'lmog'ilozim. Aqlan yetuk, salohiyatli va yuqori malakaga ega bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmog'i zarur.

O'zbekistondagi uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgan davr talabigajavob beradigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlash jarayoni an'anaviy ilmiy merosni o'rganish, ilm-fan yutuqlari, texnologik taraqqiyot asoslarini chuqur o'zlashtirish, ilmiy tadqiqotlarning ijtimoiy, iqtisodiy qiymatini belgilash, nazariya va amaliyotni uyg'unligiga erishishni ta'minlashni talab qiladi.

Dasturning maqsadi - tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo'yicha va o'tkaziladigan imtihon mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning vazifasi - tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlarning o'z mutaxassisligi sohasida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan.

Mazkur imtihon dasturi talabgorlarning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o'z ichiga oladi:

- Qiyosiy adabiyotshunoslik;
- Chog'ishtirma tilshunoslik;
- Tarjimashunoslik.

**10.00.06 - QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA
TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIGI MUTAXASSISLIGIDAN
IMTIHON DASTURI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga mutaxassislik imtihonini topshiruvchi talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:

Ixtisoslik fanidan imtihon topshiruvchi talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi:

Talabgorlar:

Chog‘ishtirma tilshunoslik:

- Chog‘ishtirma tilshunoslik fanining fanlararo o‘zaro aloqasi va xususiyati, chog‘ishtirma tilshunoslik fanida ishlatilayotgan terminologik apparat (metatil tushunchasi, til universalialari, qiyoslash turlari va h.k.) haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

- Chog‘ishtirma tilshunoslikning fundamental masalalari bo‘yicha nazariy bilim asoslarini egallashi, chog‘ishtirma tilshunoslik fanining ilmiy apparati, qiyosiy tilshunoslik fanining dolzarb masalalari, tilshunoslikda zamonaviy yo‘nalishlarning namoyon bo‘lishi va ularning talqini, qiyosiy tilshunoslikda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar va metodologiya turli yo‘nalish maktablarida qiyosiy-tipologik muammolarning talqin qilinishi haqida ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

Qiyosiy tilshunoslik sohasida ilmiy izlanish olib borish; fanga oid bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishib o‘quv, ilmiy va kasbiy jarayonlarda ularning natijalaridan foydalanish, qiyosiy tilshunoslik fanining metodologiyasini qo‘llay olish, lingvistik adabiyotlardan samarali foydalana bilish malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Qiyosiy adabiyotshunoslik:

- qiyosiy adabiyotshunoslik fani tarixi va nazariy asoslari;
- qiyosiy-tarixiy uslub;
- o‘rta asrlarda G‘arb va Sharq adabiyotida adabiy yo‘nalishlarning paydo

bo'lish tarixi va rivojlanishi;

- adabiyot shakllanishida xalq og'zaki ijodining o'rni;
- xalq og'zaki ijodining ommaviy janrlari;
- G'arb va Sharq adabiyoti bir-biriga ta'siri;
- milliy adabiyotning jahon adabiyoti bilan o'zaro bog'liqligi;
- G'arb va Sharq adabiyoti rivojlanish bosqichlari va o'zarota'sirini;
- turli davrlarga mansub G'arb va Sharq adabiyoti namoyandalarining hayoti

va ijodini;

- qiyosiy-chog'ishtirma tahlilni qo'llashni;
- adabiy janr tushunchasini;
- badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini;
- adabiy oqimlar va yo'nalishlarni;
- badiiy ijodda ma'no va shaklni;
- adabiyotlararo o'zaro ta'sirni bilishi kerak.

Bulardan tashqari,

- badiiy asar adabiy tahlilini;
- turli milliy adabiyotlarda muallif g'oyasi va asarning asosiy mavzusini

tushunish va qiyoslash;

- xarakter, kompozitsiya va syujetni tahlil qila olish;
- badiiy tasvirning estetik ahamiyatini aniqlash;
- qiyosiy-tarixiy uslubni badiiy tahlilda qo'llash;
- badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi aniqlash malakalariga ega bo'lishi

kerak.

Tarjimashunoslik:

- qadimiy tarjima maktablari va ularning fan, madaniyatga qo'shgan hissalarini to'g'risidagi ma'lumotlar;

- tarjimaning leksik, grammatik va stilistik jihatlariga oid muammolar; informativ axborotlarni tarjima qilish usullari haqidagi tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

- asl nusxa va tarjima matnini lingvistik tahlil qilish usullari;

- tarjimada qo'llaniladigan asosiy metodlar;
- tarjimada leksik, grammatik va stilistik transformatsiya usullaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tarjima jarayonida lug'at bilan ishlash, mavzuga oid turli manbalardan foydalanish;
- ma'ruzalar davomida olingan nazariy bilimlarni amaliy tarjima jarayonida qo'llay olish;
- tarjima jarayonida asl matnning shakli, mazmuni va g'oyasini saqlash,
- badiiy, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-omma bop va rasmiy xarakterdagi
- matnlarni chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

"10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" ixtisosligi bo'yicha tuzilgan tayanch doktoranturaga kirish imtihonidasturi qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvistik tipologiya, chog'ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalarini qamrab oladi. Dastur tayanch doktoranturaga talabgorning yuqori bilim va malakaga ega mutaxassis bolishi uchun zarur hamda muhim manbalar asosida tuzildi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalari yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning salmog'i yetarli darajada va bugungi kungacha ushbu sohalarda mavjud bo'lgan muammolarga doir tadqiqot ishlari davom etmoqda. Globallashtirish jarayonidagi barcha sohalarning tez sur'atlardagi taraqqiyot darajasi barcha sohalar kabi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham oldiga o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha bilimlar uyg'unligi dasturning asosini tashkil qiladi.

ASOSIY QISM

Qiyosiy tilshunoslik:

1. *Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (Komparativistika);*
2. *Tipologiya;*
3. *Chog 'ishtirma(kontrastiv) tilshunoslik.*

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning ob'yekti o'zaro qarindoshlik munosabatidagi tillar hisoblanadi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadi quyidagilardan iborat:

- qarindosh tillar evolyusiyasini sinxron va diaxron kontekstda tasvirlash;
- o'zaroqarindoshlik munosabatidagi til gipotetikmosliklar va qonuniyatlarni (fonetik, leksik-semantik, grammatik),tilbirliklarining rivojlanishini aniqlash;
- bobo tilva uning rivojlanishbosqichlarini rekonstruksiya qilish;
- tillar geneologik tasnifining umumiy sxemasida tiloilalari va makrooilalar tarkibini belgilash.

Qiyosiy tahlilga cheklanmagan miqdorda tillar tortiladi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning G'arbiy Yevropa va Rossiyada vujudga kelishi: F.Bopp,R.K. Rask, Ya. Grimm, A.X. Vostokov. XIX asr o'rtalaridagi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik: F.Pott, T. Benfey, G.Kursius, A.Kun va A.Shleyxerlaming ta'limoti.

Qiyosiy-tarixiy metod - lingvistik metodlarning eng faoli va eng asosiysi.

Tipologiya

- Tipologiyaning ob'yekti qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarhisoblanadi.

Lingvistik Tipologiyaning maqsadini quyidagilar tashkil etadi:

- tillar o'rtasidagi struktur o'xshashlikva farqlarni tasvirlash hamda ushbu tasvir metodologiyasini ishlab chiqish;
- til universalialarini ishlab chiqish;
- tillarniturlariga ko'ra tasniflash;
- tillar klassifikasiyasini yaratish;

-qiyoslanayotgan tillarning struktur-tipologik xususiyatlarini aniqlash;
tillarning genetik-tipologik xarakteristikasini amalga oshirish.

Tipologiya tarixi. Tillarning tipologik tasnifi. Agglyutinativ tillar. Flektiv tillar.

Amorf tillar.

Polisintetik tillar.

Tipologik metodlar: Genetik metod, sof tipologik metod va universalialar metodi. Tipologik metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi.

Chog‘ishtirma tilshunoslik.

Chog‘ishtirma tilshunoslikning obyekti qarindosh yoki qarindosh emasligi vatipologik xarakteristikasiga qaramay tillarni o‘rganish hisoblanadi. Chog‘ishtirma tilshunoslikning maqsadi - ikki yoki undan ortiq tillarni uning barcha qatlamlari (fonologik, morfologik, sintaktik va semantik qatlamlari) dagi izomorflik va allomorflik xususiyatlarni aniqlash uchun chog‘ishtirib o‘rganishdir.

Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida turkiy tillarning chog‘ishtirib o‘rganilishi.

Chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimaning o‘zaro munosabati. Chog‘ishtirma tilshunoslik metodlari. Tavsifiy metod. Statistik tahlil.

Tilshunoslik metodlari.

Deskriptiv Lingvistikaning tahlil metodlari: Distributiv tahlil metodi. Transformasiya metodi. Struktur Lingvistika metodlari: Komponent tahlil metodi. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi. Paradigma usullari. Oppozisiya usuli.

IMTIHON SAVOLLARI

1. Dunyo tillarining geneologik tasnifi
2. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vazifalari
3. Tipologiyaning maqsad va vazifalari
4. Chog‘ishtirma tilshunoslikning nazariy va amaliy vazifalari
5. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslik o‘rtasidagi

farq

6. Sinxron lingvistika bilan diaxron lingvistikaning farqi
7. Chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimaning o'zaro munosabati
8. Qiyosiy-tarixiy metodning mohiyati.
9. Chog'ishtirish metodlarining xususiyatlari
10. Tipologik metodning o'ziga xosliklari
11. Deskriptiv metodning asosini tashkil qiluvchi tahlil
12. Statistik tahlil metodining o'ziga xosliklari
13. Transformasiya metodi.
14. Distributiv tahlil metodi.
15. Komponent tahlil metodi
16. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi.
17. Agglyutinativ tillarning o'ziga xos xususiyatlari
18. Flektiv tillarning o'ziga xosliklari
19. Amorf tillarning o'ziga xosliklari.
20. Polisintetik tillarning o'ziga xosliklari
21. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida ot kategoriyasining izomorflik va allomorflik xususiyatlari
22. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida fe'l kategoriyasining tipologik xususiyatlari
23. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari
24. O'zaro yaqin tillar paremiologiyasidagi o'xshash va farqli jihatlar
25. Chog'ishtirma tilshunoslikning nazariy asoslarini yaratishda hissa qo'shgan tilshunoslar haqida ma'lumot bering.
26. Tipologik metodlar va ularning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi.
27. O'rta Osiyoda Chog'ishtirma tilshunoslik bo'yicha yaratilgan dastlabki asarlar.
28. Cho'ishtirma tilshunoslikning obyekti
29. Chet tillarni o'qitishda chog'ishtirma tilshunoslikdagi lingvodidaktik vazifalarning ahamiyati

30. Til universalialari terminining mohiyati.
31. O'zbekistonda tarjimashunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishi
32. Tarjima tarixi. O'zbekistonda tarjima tarixining o'rganilishi
33. Tarjima maktablarining yuzaga kelishi
34. Tarjima nazariyasining fan sifatida shakllanishi
35. Tarjimada asliyatdagi milliy o'ziga xosliklarning aks etishi
36. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari
37. Tarjimada kompensasiya usuli
38. Badiiy tarjimaning asosiy masalalari
39. Ilmiy tarjima murakkabliklari
40. Tarjimada davr uslubini saqlash masalasi
41. Tarjimada milliy va tarixiy koloritni saqlash masalasi
42. Yaqin tillardan tarjima qilish muammolari
43. Milliylik va tarjima. Tarjimada adabiy aloqa masalasi
44. Bilvosita tarjimaning kamchiliklari . Bevosita tarjimaning yutuqlari
45. Tarjimashunoslikning tarkibiy qismlari
46. "Milliy kolorit" tushunchasi va uni tarjimada qayta yaratish masalasi
47. Kinofilmlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari, muammolari
48. Tarjima va interpretasiya. Transformasiya. Transliteratsiya

terminlarining tavsifi

49. Frazologizmlar tarjimasidagi muammoli tomonlar- murakkabliklar
50. Tarjima tur va janr xususiyatlari
51. Tarjima nazariyasining obyekti, maqsadi va vazifalari
52. Zullisonaynlik va tarjimaning rivoji
53. Realialarning tarjimada berish usullari
54. Muqobilsiz leksikaning tarjimada berilishi
55. Tarjimada lakunalarni bartarf qilish usullari
56. Evfemizm va disfemizm hodisalari
57. So'zma-so'z va erkin tarjima muammolari
58. Tarjimada ekvivalentlik va muqobillik masalasi

59. Tarjima tanqidining tarjimachilik taraqqiyotiga ta'siri
60. Sinxron va ketma-ket tarjimaning o'ziga xosliklari
61. Qiyosiy adabiyotshunoslikning ob'ekti
62. Jahon adabiyotini milliy adabiyot bilan qiyoslashdagi asosiy prinsiplar
63. Adabiyotshunoslikda komparativistikaning ahamiyati
64. Adabiy janrlar va ularning qiyosi
65. Qiyosiy adabiyotshunoslikning tayanch tushuncha va terminlari
66. Adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslikning umumiy tushuncha va terminlari
67. O'zbek va o'rganilayotgan xorijiy adabiyotda adabiy janrlar orasidagi umumiy va o'xshash tomonlar
68. Qiyosiy adabiyotshunoslikning tamoyillari predmeti va o'zini. Qiyosiy adabiyotshunoslikning tamoyillari
69. Adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod va uning asoschilari. Qiyosiy va chog'ishtirma adabiyotshunoslik. Qiyosiy adabiyotshunoslik ob'ekti
70. Jahon komparativistikasining taraqqiyot bosqichlari
71. Adabiy aloqa turlari. Kontakt aloqa tipologiyasi. Kontakt aloqa.
72. Tekst, badiiy asar, diskurs, kontekst, intertekst tushunchalari. Tekst struktura sifatida
73. Diskurs tushunchasi. Diskurs va tekst. Intertekstuallilik konsepsiyasi.
74. Milliy adabiyot, hududiy adabiyot, jahon adabiyoti tushunchalari
75. Milliy adabiyot xalq dunyoqarashining aksi sifatida. Hududiy adabiyotlarga bo'linishning tamoyillari
76. "Jahon adabiyoti" tushunchasining shakllanishi. Jahon adabiyoti milliyadabiyotlarning o'zaro rivojlanishining yig'indisi sifatida
77. Globallashtirish sharoitida madaniyatlarning o'zaro rivojlanishi, mul'tikulturalizm (ko'pmillatli madaniyat)
78. Multikulturalizm: keng va tor tushunchalari, terminning shakllanishi va taraqqiyoti

79. Turli-tuman madaniyatlarning to'qnashuvi va o'zaro rivojlanishi (madaniy izolyasiya, assimlyasiya, unifikasiya (birxillashtirish), "mayin va o'tkir" (myagkiyi jestkiy) mul'tikulturalizm, aparteid (razdel'noe projivanie)
80. Sharq mamlakatlari adabiyotida mul'tikulturalizm
81. O'zaro adabiy aloqalar va shakllari
82. Adabiy ta'sir va o'zlashtirish nazariyasi. Badiiy asarda "o'zga so'z".
83. Adabiyotlararo dialog.
84. "Ikkinchi" adabiyot komparativistika predmeti
85. Uzoq Sharq mamlakatlari adabiyotida umumiylik va xususiylik
86. Yaqin sharq mamlakatlari adabiyotida umumiylik va xususiylik
87. Sharq va G'arb madaniyatlar dialogi
88. T.Benfey, N.Veselovskiylarning qiyosiy adabiyoshunoslikka qo'shgan hisssasi
89. M.Jirmunskiy, N.Konradlarning qiyosiy adabiyoshunoslikka qo'shgan hisssasi
90. Makrokomparativistika, mikrokomparativistika, arxivshunoslik, tarjimashunoslik, adabiy aloqalar
91. XX asr qiyosiy adabiyotshunosligida olib borilgan izlanishlar: M.Baxtin, V.R.Aminevalar nazariyalari
92. O'xshash va tipologik xususiyatlarga ko'ra qiyoslash mexanizmi va tamoyillari
93. Intertekstuallilik konsepsiyasi. Kontekst tushunchasi
94. "Sharq madaniyati an'anasi" tushunchasi
95. Milliy adabiyotlar, yozuvchilar ijodi, adabiy aloqa va tipologik aloqalar o'rtasidamunosabatlar shakllari
96. Adabiy ta'sir va o'zlashtirish nazariyasi. Motiv. Syujet. Sayyor syujetlar nazariyasi
97. Sharq va G'arb adabiyotidan tarjimalar, ularda badiiy olamning qayta yaralishi. (Navoiy va Shekspir asarlari misolida)
98. F.Sulaymonovanning Sharq va G'arb adabiyoti haqidagi qarashlari

99. N.Komilovning Sharq va G'arb adabiyoti haqidagi qarashlari.
100. Qiyosiy tarixiy uslub tushunchasini paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi.
101. Mifologik maktabning taraqqiyoti va uni qiyosiy - tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri
102. (Ya. va V.Grimm, A.Kun, M.Myuller, F.I.Buslaev, A.N.Afanas'ev, O.F.Miller).
103. Qiyosiy-tarixiy uslubni adabiyotlararo jarayonda rivoji.
104. Aristotel' va Gegel' asarlarida adabiy nazariyalar.
105. O'rta asr va Uyg'onish davri G'arb va Sharq adabiyotining qiyosiytahlili, taraqqiyot yo'nalishlari.
106. Og'zaki xalq ijodining adabiyotshunoslik rivojidadagi o'rni.
107. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiyg'oyalarga ta'siri.
108. Ma'rifatparvarlik adabiyoti mutafakkirlari – Klod Gel'vesiya va Iogann Vinkel'man.
109. Adabiyotshunoslikning tarixiy fan sifatida taraqqiyoti.
110. Adabiy oqimlar va yo'nalishlar. Adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlarida adabiy oqimlar. Sentimentalizm va romantizm adabiy yo'nalishlari xususiyatlari.
111. Realizmning adabiy yo'nalishlari. Adabiyot, modernizm va postmodernizm.
112. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. Postmodernizm va "O'zga so'z" muammosi.
113. Tarjimaning umumiy nazariyasi. Tarjimaning xususiy nazariyalari.
114. Tarjimashunoslik fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari.
115. Tarjimaning tilshunoslik bilan bog'liq jihatlari.
116. Tarjima turlari. Tarjima birliklari va darajalari.
117. Ma'lumotlar turlari. Terminologik lug'atlar. Muqobil tarjima. Muobillikning turlari.
118. Tarjimaning leksik-semantik muammolari

119. Soʻz semantikasi va tarjima. Chet tili va oʻzbek tillarida soʻz maʼnolari hajmi va shakli oʻrtasidagi farqlar.

120. Omonim soʻzlar va polisemantik soʻzlar tarjimasi. Soʻz va kontekst.

121. Soʻz va soʻz birikmalari sinonimiyasi. Atoqli otlar, geografik nomlar, tashkilotlar nomlarini tarjima qilish.

122. Terminlar tarjimasi. Qisqartma soʻzlar tarjimasidagi muammolar.

123. “Tarjimonning sohta doʻstlari” muammosi. Leksik lakunalar.

DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI BILIMINI BAHOLASH MEZONI

№	Doktoranturaga kiruvchining bilim darajasi	Ball
1	Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega boʻlib, mustaqil mushohada yuritib, masalaning mohiyatini tushinib, bu haqda chuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qoʻshimcha manbalardan foydalangan	90-100
2	Berilgan masala haqida mustaqil mushohada yuritgan, uning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega boʻlgan, masalaning oʻzi bilan cheklanib, qoʻshimcha manba va adabiyotlardan foydalana olmagan	70-89
3	Masalaning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega boʻlgan, savolga qisman javob bera olgan, qoʻshimcha adabiyotlardan foydalana olmagan	60-69
4	Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega boimagan, savolga qisman javob yozgan, manbaalarda bor maʼlumotlarni toʻliq keltirmagan	0-59

Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari

Imtihonni baholash uchun maksimal baho - 100 ball etib belgilanadi.

Jami 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- 1- savolgajavob: maksimal -25 ball;
- 2- savolga javob: maksimal - 25 ball;
- 3- savolga javob: maksimal - 25 ball;
- 4- savolga javob: maksimal - 25 ball.

Har bir savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy terminlarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish qobiliyati;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilgan;
- o'z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda etgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga a'lo baho qo'yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, yaxshi baho qo'yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, qoniqarli baho qo'yiladi. Fikr aniq ifoda etilmagan, birorta ham savolga qisman bo'sada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun talabgor qoniqarsiz baholanadi.

ESLATMA: Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan talabgorlar yakuniy baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga

haqli. Doktoranturaga kirish imtihonlari komissiyasi va talabgor o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda imtixon raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-sonli Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.- Toshkent, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016 .- 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi .- T .: "O'zbekiston", 2017. -48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T .: " O'zbekiston ", 2017. - 488 b.
6. Ochilov E. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: ToshDSHI, 2014.
7. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. OTM uchun darslik. -Toshkent: 2013.
8. Yoldoshev I., Muhamedova S., Sharipova G'., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. Darslik. -Toshkent: 2013.
9. Usmanova Sh. "Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari" fanidan ma'ruzalar kursi. -Toshkent: 2014.
10. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjimanazariyasi. -Toshkent: "Tafakkur Bo'stoni", 2012.
11. A. Xojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent - 2005
12. D.Lutfullaeva, D.Xudoyberganova. Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari. Toshkent, 2016
13. Sh.Safarov. Semantika. Toshkent, 2013
14. M.Umarxujayev. Umumiy tilshunoslik. Andijon, 2010
15. Gafurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Mexridaryo, 2008.

16. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. -Toshkent: "Mumtoz soʻz", 2011.
17. Musaev K. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. -Toshkent: Fan, 2005.
18. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lugʻati. -Toshkent, 2014.
19. Dadabaev X.A., Xolmanova Z.E. Turkiy tillarning kiyosiy-tarixiy grammatikasi. - Toshkent: Universitet, 2015.
20. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология - Ташкент: Фан, 1999
21. Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. - М .: 205. 412с.
22. Абдуазизов А.А. Зализняк А.М., Шереметьева А.Г. Общее языкознание. - Ташкент, 2012.
23. Кодухов В. И. Общее языкознание. Учебник для студентов ун-тов и пед .- тов. Изд. 5-е. - М .: Либриком , 2012.
24. Yusupov Oʻ.Q. Contrastive Linguistics of English and Uzbek
25. Ярцева В.Н. Контрастивная лингвистика .- Москва, 1981.

INTERNET MABALARI

1. <http://www.ziyo-net.uz>
2. <http://www.kutubxona.uz>
3. <http://www.ru.wikipedia.org/wiki/>
4. <http://www.tapemark.narod.ru/les/239a.html>
5. <http://www.philology.ru/linguisticsl/gak-89.htm>
6. <http://www.perevodovedcheskiy.academic.ru/686/>
7. [http://www.steminia.ru/fdes/757/4_Izbrannye/Kontrastivnaja_lingvistika.p
df](http://www.steminia.ru/fdes/757/4_Izbrannye/Kontrastivnaja_lingvistika.pdf)
8. <http://www.filologia.su/kontrastivnaja/>
9. http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/lingvo/2010/01/2010-01_-04.pdf
10. [http://www.gumer.info/bibliotek Buks/Linguist/shvevz/p2.pdf](http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/shvevz/p2.pdf)

